

“Kelajak soati” darsining 1–4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
20-mavzu: “Muvaffaqiyat sirlari. Startap”

Umumiy maqsad:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida innovatsiya, iqtisodiy madaniyat, tadbirkorlik asoslari va muvaffaqiyatga erishish haqida ilk tasavvur hosil qilish, halollik, mehnatsevarlik fazilatlarini qadrlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish kabi ko‘nikmalar asoslarini shakllantirish.

Annotatsiya:

Mazkur mashg‘ulot davomida o‘quvchilarga “muvaffaqiyatga erishish”, innovatsiya va “Startap” tushunchalarining hayotdagi ahamiyati, ularning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida tushuncha beriladi. Dars davomida suhbat, loyihalar, misollar, hikoyalar, videolavha va interaktiv o‘yinlar orqali o‘quvchilarda o‘zini o‘zi rivojlantirish, Startap ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Darsning maqsadlari:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga muvaffaqiyat tushunchasini yoshga mos, hayotiy misollar orqali tushuntirish.
2. Maqsad qo‘yish, rejalashtirish va harakat qilish ko‘nikmasini shakllantirish.
3. “Startap” atamasi va uning hayotiy ahamiyatini bolalarcha misollar bilan anglatish.
4. Ilg‘or g‘oyalar, innovatsiyalar va ijodiy fikrlashning rivojlanishdagi ahamiyatini ochib berish.
5. Bolalarda ishonch, tashabbuskorlik va jamoada ishlash malakasini rivojlantirish.

Asosiy g‘oya:

Tadbirkorlik, biznes ko‘nikmalari – insonning iqtisodiy muvaffaqiyatlarini belgilaydigan, uni boylik va farovonlikka olib chiqadigan kuchdir. Startap esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tadbirkorlikning ilk ko‘nikmalarini o‘rganish manbaidir.

Kutiladigan natijalar:

- o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmasini shakllantirish uchun zarur tushuncha, bilimlarga ega bo‘ladilar;
- bolalar turli kichik vazifalarni mustaqil bajarishga o‘rgatiladi;

- kichik biznes o‘yinlarini (masalan, “bozor-bozor”, “do‘kon-do‘kon”) o‘ynab, mustaqil fikrlash va yangi g‘oyalarni taklif qilishni o‘rganadilar;
- kichik, mas’uliyatli vazifalarni bajarish ko‘nikmalari bilan tanishadilar;
- masalalarni mustaqil yechish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari bilan tanishadilar;
- Startap to‘g‘risida ilk bilimlarga ega bo‘ladilar;
- “bozor-bozor” o‘ynash, qo‘l mehnati mahsulotlarini tayyorlash va taqdim etishda ishtirok etadilar;
- mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgana boradilar;
- mas’uliyat, javobgarlik hissini amalda his qiladilar;
- liderlik va jamoaviy ish ko‘nikmalari rivojlanadi;
- mustaqil loyihalar ustida o‘ylash va ishlash ko‘nikmalarini o‘rganadilar.

Metapredmet yondashuv:

Metapredmet maqsad: “Bolalar muvaffaqiyat degani – mehnat, reja va ishonch ekanini hayotiy misollarda anglab yetsin va o‘z kichik maqsadlarini qo‘ya olishsin.”

Metapredmet natija: “O‘quvchilar muvaffaqiyatni tashqi omad deb emas, balki ichki harakat, reja va sabr mevasi sifatida tushunib yetishadi.”

Tarbiya / Ona tili	Orzu, mehnat, intizom haqida matnlar, hikoyalar o‘qish va muhokama qilish
Matematika	Rejalashtirish va vaqtni hisoblash (masalan, “3 kunda shunday ish qilaman”)
Texnologiya	Qo‘l ishlari orqali startap g‘oyasini amalga oshirish (masalan, “ekoxaltacha” yasash)
Tasviriy san’at	“Muvaffaqiyat daraxti” yoki “Mening orzuyim” rasmini chizish
Ingliz tili	Startap, startaper va boshqa tushunchalarni qisqa videolavhalarda ko‘rish va muhokama qilish

Dars davomiyligi: 45 daqiqa

Dars shakli: interaktiv, illyustrativ va faoliyatli dars

Dars uslubi: “muammoli savollar + jamoaviy ijod + vizual ko‘mak + motivatsion tahlil”

Kerakli jihozlar:

- PowerPoint slaydlar (rasmlar, iboralar)
- Qisqa videoroliklar (“Tadbirli bola”)
- Stiker, vatman, markerlar
- “Maqsad daraxti” maketi
- “Ilg‘or g‘oyalar” qutisi.

DARS SSENARIYSI

1. Kirish Motivatsion qism (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Salom, bolalar! Bugun sizlar bilan juda qiziq mavzuda gaplashamiz.

Har biringizning ko‘nglingizda orzu, maqsadlar bor, to‘g‘rimi?

O‘quvchilar: Haaaa!

O‘qituvchi: Masalan, kimdir futbolchi, kimdir shifokor bo‘lmoqchi, kimdir ixtirochi, kimdir uchuvchi... To‘g‘rimi?!

O‘quvchilar: Haaaa.

O‘qituvchi: O‘z orzulariga yetgan odam muvaffaqiyatli odam deyiladi. Orzularga qanday yetsa bo‘ladi? Buning uchun harakat qilish kerak. Lekin shunchaki hamma qilgan oddiy ishlarni qilish kamlik qiladi. Aql va topqirlik bilan harakat qilish kerak.

Keling, avval muvaffaqiyat so‘zini tushunib olamiz.

“Muvaffaqiyat” so‘zi nimani bildiradi? Bilasizlarmi? Qani qo‘l ko‘taringlar-chi?

Bolalarning javoblari tinglanadi.

O‘qituvchi: Muvaffaqiyat degani bu – o‘ylagan ishini qilib, katta natija bilan tugatish, maqsadga erishish, istagan narsasini qo‘lga kiritish degani.


Masalan, bir futbol jamoasi boshqa jamoa bilan o‘ynab, uni yengishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu jamoa yutsa, “muvaffaqiyat qozondi”, “g‘alaba qozondi”, deyishadi.

Yana bir misol. Sinfdoshingiz “Men har oyda 100 ta inglizcha so‘z yodlayman”, deb maqsad qildi. Bir yildan so‘ng u inglizchada yaxshi gapira boshladi. Sinfdoshlari uni “Sen muvaffaqiyatga erishding”, deb tabriklashadi.

Uchinchi misol. O‘quvchilari “Yanvar oyida bizning sinf o‘quvchilaridan hech kim darsga kech qolmaydi”, deb qaror qilishdi. Yanvar oyida hamma darsga o‘z vaqtida keldi. Fevral, mart oyida ham hech kim kechikmadi. Buni ko‘rgan maktab direktori “Bu sinf o‘quvchilari katta muvaffaqiyatga erishdi. Rahmat”, deb maqtadi.

Endi “muvaffaqiyat sirlari” nimaligini bilib olamiz.

Sizlarga bir savol. Ayting-chi, nima uchun ba’zi odamlar muvaffaqiyatli bo‘ladi? Ba’zi odamlar esa muvaffaqiyatli bo‘lmaydi? Hozir men ikki bolaning rasmini ko‘rsataman. Bilib olamiz.



O‘qituvchi: “Qaysi bola muvaffaqiyatli bo‘ladi deb o‘ylaysiz?”

O‘quvchilar: Birinchi bola.

O‘qituvchi: Nima uchun birinchi bola muvaffaqiyatli, baxtli, omadli bo‘ladi?

O‘quvchilar: Erta turadi. Yaxshi o‘qiydi. Aqlli bola.

O‘qituvchi: To‘ppa-to‘g‘ri, aziz o‘quvchilar Muvaffaqiyatga erishish uchun doim kichik-kichik qadamlarni qo‘yib borish kerak. Lekin bu yerda muntazamlik lozim. Ya‘ni ikki kun erda turib, bir kun kitob o‘qib, keyin buni tashlab qo‘ysa – muvaffaqiyat kelmaydi. Maqsad uchun har kuni tinmasdan kichik-kichik bo‘lsa-da qadam qo‘ygan odam muvaffaqiyatga erishadi.

Bilasizlarmi, Sizlar muvaffaqiyatli va bilimli avlod bo‘lishingiz uchun Davlatimiz rahbari, hurmatli Prezidentimiz katta sharoitlarni yaratib bermoqdalar. Prezident maktablari, iqtidorli bolalar maxsus maktablari, IT-parklar qurildi, fan olimpiadalarida yutgan o‘quvchilarga katta mukofotlar berilyapti, ko‘plab kutubxonalar ochilyapti. Prezidentimiz aytadilarki:

“Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.

Ya‘ni sizlar bilimli bo‘lsangiz, keyinchalik boy ham bo‘lasiz, farovon yashaysiz va yurtimiz ham rivojlanadi. Buning uchun esa sizlar yaratilgan sharoitlardan foydalanib muvaffaqiyat sari intilishingiz, yangi g‘oyalar o‘ylab topib odamlarning hayotini yaxshi qilishga urinishingiz lozim. Shunda o‘zingizning hayotingiz ham farovon bo‘ladi, yurtimiz ham rivojlanadi.

Endi esa bugun mamlakatimizda iste‘dodli yoshlarni va ularning ilg‘or g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilgan sharoitlar orasida eng yaxshilaridan biri bo‘lgan Prezident maktablariga videosayohat qilamiz.

Vizual kontent

Toshkent shahridagi Prezident maktabidamiz

<https://youtu.be/TBIVcDAvg3k>

Video muhokamasi (2 daqiqa)

2. Asosiy qism (30 daqiqa)

1-bosqich: Maqsad va rejalashtirish

O‘qituvchi: Bolalar. Bilasizmi, muvaffaqiyat – bu omad emas, balki reja bilan harakat qilish natijasi.

Agar bizning maqsadimiz bo‘lmasa, nima bo‘ladi? Biz qayerga borishni bilmaymiz. Masalan, men hozir sizlar bilan sinfdan chiqib, “Boringlar”, desam, qayoqqa borasiz? Bilmaysiz, to‘g‘rimi? “Stadionga boringlar”, desam, maqsad aniq bo‘ladi.

O‘quvchilar: Haaa.

O‘qituvchi: Chunki men boshida qayoqqa borishni aytmadim. Demak, maqsad bizga yo‘l ko‘rsatar ekan. Maqsad – bu bizni orzularimizga olib boruvchi, bizlarni yetaklar ekan.

Misol:

“Oybek har kuni 10 daqiqa ingliz tili o‘rganadi. Boshqalar o‘yin o‘ynaganda, u kitob o‘qiydi. Bir oydan keyin u 50 ta yangi so‘z yodladi. Bu – muvaffaqiyat!” Chunki u aniq maqsad qo‘ydi. Reja tuzdi. Harakat qildi.

Interaktiv faoliyat:

O‘qituvchi: Bolalar, ayting-chi, sizning ham shu haftada amalga oshiradigan aniq maqsadlaringiz bormi?

O‘quvchilar: Boor.

O‘qituvchi: Qani, aytinglar-chi.

Bolalar maqsadlarini aytadilar. Masalan, “bu chorakni faqat “5” baho bilan yakunlayman”, “suzishni o‘rganaman”, “kitobni o‘qib tugataman”, “ingliz tilidan so‘z yodlayman” va hokazo.

O‘qituvchi: Maqsadlarga qanday erishamiz? Bunda bizga “Maqsad daraxti” yordam beradi.



Mana, “**Maqsad daraxti**” rasmi.

Demak, muvaffaqiyatga erishish uchun avval maqsadni aniq qilib olish kerak ekan. Undan so‘ng reja tuzish kerak. Undan keyin harakat qilish kerak ekan. Ana shunda maqsad mevalga aylanar ekan. Buni bilib oldik.

Sizlar aytgan maqsadlarni “Maqsad daraxti”ning ildizlariga ulab qo‘yamiz. Ular rejaga, harakatga va albatta mevalarga aylanadi.

Bolalar orzularini stikerlarga yozib daraxtning ildizi uchlariga yopishtirishadi.

O‘qituvchi: Bolalar, kelinglar endi o‘zi maqsadiga erishgan yosh startapchi haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Amerikaga borgan qoraqalpoq qizi – Alfiya Amangeldiyeva

https://youtu.be/b_6aQx0dKH0

Video muhokamasi (2 daqiqa)

2-bosqich: “Startup” nima? “Startaper” kim?

O‘qituvchi doskaga “START+UP” deb yozadi.

O‘qituvchi: “Start” degani nimani anglatadi?

O‘quvchilar: Boshlash. To‘xtash...).

O‘qituvchi: To‘g‘ri javob – **boshlash.**

“Up” degani nima?

“Up”, degani bu inglizcha pastdan yuqoriga chiqish, ko‘tarilish, o‘rish, degani. Oddiy, oson qilib – **o‘rish,** deymiz. Mana, bilib oldik, “Startap” – biror yangi ishning boshlanishi va uning o‘rishi, rivojlanishini bildiradi.

“Startap”ni amalga oshiruvchi startaper deyiladi.

Masalan, Umida “Sinf doshimga matematikadan yordam beraman”, – dedi. Bugundan Azamatga yordam bera boshladi. O‘zi vaqtini belgiladi, qanday yordam berish yo‘lini o‘ylab topdi: masalan, har kuni kechki payt uyidan turib videoaloqa orqali matematikani o‘rgata boshadi. Undan o‘rganib, boshqa sinfdoshlari, maktabdoshlari darsga qo‘shilishadi. Umida ularga bosh bo‘ladi. Maslahatlar beradi. Keyinchalik bu o‘quvchilar bir-biriga yordam beradigan virtual maydonchaga aylandi. Shu startap bo‘ladi.

Yoki 3-sinfda Shohrux – startaper. U “O‘qilgan kitoblarni almashish qutisi” yasadi. O‘quvchilar o‘qigan kitobini qutichaga qo‘yib, o‘qimaganini olib ketishadi. O‘qigach, qaytarib solib qo‘yishadi.

Bu Shohruxning Startapi bo‘ladi! Asta-sekin maktabdagi hamma sinflarda “O‘qilgan kitoblarni almashish qutisi” bo‘ladi. Maktabimizda kitobxonlik bo‘yicha yaxshi, foydali ishga aylanadi.

Xo‘sh, yaxshi, muvaffaqiyatli startap o‘ylab topish uchun nima qilish kerak?

Hozir shu savolga javob beradigan videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Startaperlar uchun 7 qadam

<https://youtu.be/7FUWrGbyIWo>

3-bosqich: Ilg‘or g‘oyalar va innovatsiyalar

So‘z sharhi:

“Innovatsiya” – bu yangicha fikrlash, narsalarni boshqacha ko‘rish.

Ilg'or g'oyalar – har bir insonning qalbida yashaydi. Ularni faqat ishga solish kerak. Innovatsiya – bu “yangi g'oya”, “yaxshi fikr”, “ishni avvalgidan yaxshiroq qilish usuli” degani.

“Innovatsiya – bu yangi narsalarni o'ylab topish, hayotni oson va chiroyli qilish. Masalan, avval:

bobo-momolarimiz sham yoqishgan,
keyin chiroq yoqishgan,
hozir esa elektr lampalari yoqilyapti.
Bu – innovatsiya!”

Innovatsiyalar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagan. Ularni buyuk kashfiyotchilar katta muvaffaqiyatlar, ba'zan hatto muvaffaqiyatsizliklar ortidan yaratishgan. Kelinglar, hozir ular haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

G'oyadan muvaffaqiyatgacha!

<https://youtu.be/mTYt6QLOFpY>

Guruhlarda ishlash (3-4 nafardan):

Guruhlarga oq qog'oz beriladi, ular 5 daqiqa ichida yuqoridagi “Maqsad daraxti”ni chizib, meva qismiga o'z g'oyalarini yozadilar.

O'qituvchi savollar beradi:

“Bu g'oya nima uchun kerak?”

“Kimlarga foydasi tegadi?”

“Qanday qilib uni amalga oshirish mumkin?”

Natija: Guruhlar ishni taqdim etishadi. O'qituvchi har bir guruhni quvonch bilan olqishlaydi va “Innovatsiya – yaxshi g'oyadan boshlanadi!” degan iborani ta'kidlaydi.

3. Yakuniy qism (10 daqiqa)

Refleksiya.

O'qituvchi: Bolalar, endi hammamiz bir savolga javob beramiz. “Men muvaffaqiyatli bo'lish uchun nima qilaman?”.

Masalan:

- “har kuni o'qishga tayyorlanaman”;
- “orzu qilgan ishim uchun harakat qilaman”;

- “do‘stlarimga yordam beraman”.

O‘qituvchi: Bolalar. Bugun siz muvaffaqiyatning 3 ta sirini bilib oldingiz:

1 – maqsad qo‘yish.

2 – rejalashtirish.

3 – harakat qilish.

Eng muhimi – yaxshi g‘oyani amalga oshirishdan qo‘rqmaslik, cho‘chimaslik kerakligini bilib oldingiz. Endi o‘z g‘oyangizni o‘ylab toping va uni amalga oshiring. Sizlar buni eplaysiz. Men sizlarga ishonaman.

Shu bilan darsimiz tamom. Xayr, salomat bo‘linglar!

Darsdan keyingi tavsiyalar:

Bolalar bilan “Mening birinchi Startap g‘oyam” nomli mini-daftarcha tuzish.

Bir hafta ichida har bir o‘quvchi kichik loyiha taklif qilib keladi (rasm, qo‘l ishi, fikr).

Keyingi haftada “Sinf o‘quvchilarining ilg‘or g‘oyalari” ko‘rgazmasini tashkil etish.

Hafta hikmati:

Har bir bola – Startaper bo‘la oladi!

Olg‘a, bolalar!!!